

QASHQADARYO HUDUDIIY OG‘ZAKI NUTQIDAGI “HA ENDI” DISKURS MARKERINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI VA INGLIZ TILIDAGI FUNKSIONAL MUQOBILLARI

Meyliyeva Nigora

Qarshi davlat universiteti

Elektron pochta: meyliyevanigora5@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda o‘zbek og‘zaki nutqida, xususan, Qashqadaryo hududiy so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanadigan “ha endi” diskurs markerining pragmatik xususiyatlari hamda uning ingliz og‘zaki nutqidagi funksional muqobillari chog‘ishtirma jihatdan tahlil qilinadi. “Ha endi” birligi turli kommunikativ vaziyatlarda rozilik, muqarrarlikni qabul qilish, ikkilanish, fikrni yumshatish, izohlash va suhbatni davom ettirish kabi funksiyalarni bajarishi mumkin. Ingliz tilida mazkur funksiyalar ko‘pincha well, okay, right, you know kabi diskurs markerlari yoki kontekstual konstruksiyalar orqali ifodalanadi. Tadqiqotda kontekstual, funksional-pragmatik va chog‘ishtirma tahlil metodlaridan foydalaniladi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs marker, ha endi, pragmatika, Qashqadaryo shevasi, og‘zaki nutq, ingliz tili, chog‘ishtirma tilshunoslik.*

KIRISH

Zamonaviy pragmalingvistikada og‘zaki muloqot jarayonini tashkil etuvchi diskurs markerlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Diskurs markerlari gapning asosiy propozitsional mazmuniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirmasa-da, so‘zlovchining munosabatini ifodalash, suhbat qismlarini o‘zaro bog‘lash, fikrni kuchaytirish yoki yumshatish, suhbatdosh e‘tiborini boshqarish kabi muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi.

Ingliz tilida well, so, right, okay, you know, I mean, anyway singari birliklar keng o‘rganilgan. O‘zbek og‘zaki nutqida esa ha endi, bo‘pti, xullas, -ku, -da, -chi singari birliklar kommunikativ jarayonda muhim pragmatik vazifalarni bajaradi.

Mazkur tezisning maqsadi “ha endi” diskurs markerining turli kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan pragmatik funksiyalarini aniqlash hamda ularni ingliz og‘zaki nutqidagi funksional jihatdan yaqin birliklar bilan chog‘ishtirishdan iborat.

“Ha endi” markerining pragmatik funksiyalari

“Ha endi” tarkiban tasdiq ma‘nosini bildiruvchi ha hamda vaqt ma‘nosiga ega endi birliklaridan tashkil topgan. Biroq og‘zaki muloqotda ushbu birikmaning umumiy pragmatik ma‘nosi uning tarkibiy qismlarining oddiy lug‘aviy ma‘nolari yig‘indisidan kengroqdir.

Masalan, tahlil metodini ko‘rsatish uchun quyidagi kommunikativ vaziyatni olaylik:

A: Ertaga yana ishga borasanmi?

B: Ha endi, borishga to‘g‘ri keladi.

Mazkur vaziyatda ha endi oddiy tasdiqdan tashqari, so‘zlovchining mavjud vaziyatni istaksiz tarzda qabul qilishi va muqarrarlikni ifodalashiga xizmat qiladi. Ingliz tilida bunaqa

funksional jihatdan: “Well, I’ll have to go” konstruksiyasi yaqin keladi. Bu yerda well ham javobni boshlash bilan birga soʻzlovchining vaziyatga munosabatini yumshoq tarzda ifodalaydi.

Yana bir holat:

A: Nega buni sotib olding?

B: Ha endi, bolalar soʻradi.

Bu misolda marker soʻzlovchining oʻz harakatini izohlashi va qisman oqlashi uchun xizmat qiladi. Ingliz ogʻzaki nutqida: “Well, the kids asked for it” shakli shunga yaqin pragmatik vazifani bajarishi mumkin.

Uchinchi vaziyat:

A: Bormasak ham boʻlardi?

B: Ha endi, nima qilamiz.

Bu yerda ha endi chorasizlik yoki vaziyatni qabul qilish maʼnosini kuchaytiradi. Funksional jihatdan: “Well, what can we do?” kabi inglizcha variant bilan qiyoslash mumkin.

Toʻrtinchi kontekst:

A: Ishlar qalay?

B: Ha endi, sekin-sekin.

Bu holatda marker toʻliq ijobiy yoki salbiy baho bermasdan, javobni yumshatish va ehtiyotkorona ifodalash vazifasini bajaradi. Ingliz tilida: “Well, we’re getting there” kabi shakl pragmatik jihatdan yaqinlashadi.

Chogʻishtirma tahlil

Quyidagi jadvalda “ha endi” diskurs markerining turli kontekstlardagi funksiyalari va ularning ingliz tilidagi muqobillari umumlashtirilgan:

“Ha endi” ishtirok etgan qoʻllanishlar	Asosiy pragmatik funksiyasi	Ingliz tilidagi funksional vositasi
Ha endi, borishga toʻgʻri keladi.	Muqarrarlikni qabul qilish	well
Ha endi, bolalar soʻradi.	Izohlash / oʻzini oqlash	well
Ha endi, nima qilamiz.	Chorasizlik / vaziyatni qabul qilish	well / what can we do?
Ha endi, sekin-sekin.	Javobni yumshatish	well
Ha endi, boʻldi-da.	Mavzuni yakunlash	okay / well

Keltirilgan misollar “ha endi = well” tarzidagi mutlaq ekvivalentlikni anglatmaydi. Aksincha, ular ayrim kommunikativ kontekstlarda ikki birlikning funksional-pragmatik jihatdan yaqinlashishi mumkinligini koʻrsatadi. “Ha endi”ning pragmatik maʼnosi intonatsiya,

suhbat vaziyati, oldingi replika hamda soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi munosabatga bogʻliq holda oʻzgaradi. Shu bois diskurs markerlarini chogʻishtirishda ularning tashqi shakliga emas, balki kommunikativ funksiyasiga asoslanish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tahlil shuni koʻrsatadiki, “ha endi” oʻzbek ogʻzaki nutqida polifunksional diskursiv birlik sifatida namoyon boʻlib, muqarrarlikni qabul qilish, fikrni yumshatish, izohlash, chorasizlikni ifodalash va suhbatni tashkil etish kabi bir qator pragmatik funksiyalarni bajarishi mumkin.

Ingliz ogʻzaki nutqidagi well markeri mazkur funksiyalarning ayrimlarini bajarishi bilan “ha endi”ga funksional jihatdan yaqin turadi. Biroq ularning pragmatik imkoniyatlari toʻliq ustma-ust tushmaydi. Shu sababli ikki tildagi diskurs markerlarini oʻrganishda formal yoki lugʻaviy ekvivalentlikdan koʻra funksional-pragmatik muvofiqlik asosiy mezon boʻlishi lozim.

Kelgusida Qashqadaryo hududiy shevalaridan toʻplangan autentik ogʻzaki nutq materiallari asosida ha endi, boʻpti, -ku, -da, -chi, xullas kabi boshqa diskurs markerlarini ingliz ogʻzaki nutqidagi birliklar bilan chogʻishtirish mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schiffrin, D. Discourse Markers. Cambridge University Press, 1987.
2. Fraser, B. “What are Discourse Markers?” Journal of Pragmatics, 31(7), 1999, pp. 931–952.
3. Brinton, L. J. Pragmatic Markers in English: Grammaticalization and Discourse Functions. Mouton de Gruyter, 1996.
4. Aijmer, K. Understanding Pragmatic Markers: A Variational Pragmatic Approach. Edinburgh University Press, 2013.
5. Love, R., Dembry, C., Hardie, A., Brezina, V., McEnery, T. “The Spoken BNC2014: Designing and Building a Spoken Corpus of Everyday Conversations.” International Journal of Corpus Linguistics, 22(3), 2017, pp. 319–344.